ko'rsatkichi birmuncha pasaydi (10,5%) va kasalxonadan davolanib chiqayotgan bemorlarning foiz ulushi xam mos ravishda ko'tarildi (98%). Eng ko'p kasallanish (26920) qayd etilgan avgust oyida bu ko'rsatkich 95% ni tashkil qilgan edi.

1.3. COVID-19 kasalligining yosh va jinsga xos xususiyatlari

Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi (CDC) ma'lumotlariga ko'ra, 65 yoshdan oshgan shaxslar Qo'shma shtatlardagi umumiy aholining 17% tashkil qilganda, ular COVID-19 infeksiyasining 31%, kasalxonaga yotqizilganlarning 45% ni tashkil qilmoqda. Intensiv terapiya bo'limiga yotqizilganlar va kasallikdan vafot etganlarning 80% keksa yoshdagi aholi hissasiga to'g'ri kelmoqda [33]. Bu shuni ko'rsatadiki, keksa odamlarda COVID-19 ni yuqtirish ehtimoli ko'proq va umumiy aholiga qaraganda ushbu guruh vakillari kasallikni og'irroq holatda o'tkazishmoqda. SARS-CoV-2 bilan kasallangan odamlarning umumiy jinsiy taqsimotiga qaramay (erkak 51%, ayol 49%), o'lim holatlari erkaklarda (2,8%) ayollarga (1,7%) nisbatan yuqoriroq bo'lmoqda. 80 va undan katta yoshdagilar 50-59 yoshdagilarga nisbatan 12 baravar ko'proq kasallikka chalinishgan [24].

Yurtimizda Respublika maxsus 1 va 2 son Zangiota shifoxonasida davolangan 10848 nafar bemorning jins bo'yicha tahlili o'tkazilganda, ayollar soni ($53,7 \pm 0,47$) erkaklar sonidan ($46,3 \pm 0,47$) statistik ishonarli darajada yuqori bo'ldi. ($P < 0,05$). Bundan ko'rinib turibdiki erkaklarga nisbatan ayollar ushbu kasallik bilan statsionarga ko'proq yotqizilmoqda. (1.3-rasm)




1.3-rasm. COVID-19 bilan statsionarda davolangan bemorlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi (%).

Maqsadli profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishda aholining eng ko'p zarar ko'rgan qatlamlarini hisobga olish juda muhimdir. Ko'pincha aholining kasallanish darajasini tahlil qilish yoshga qarab amalga oshiriladi. Bu esa epidemik jarayonning intensivligini belgilaydigan ko'plab epidemik omillar bilan bog'liq.

COVID-19 kasalligiga chalinish hamma yosh guruhlarida uchraydi, ammo katta yoshli odamlar orasida bu kasallanish ko'rsatkichi yoshlarga nisbatan yuqori. Bizning tadqiqotlarimizda xam ushbu holatlar yaqqol o'z aksini topdi.

Yurtimizda ushbu kasallikni aholi yosh guruhlarida tarqalganligini statistik tahlil qilganimizda jami kasallanganlarning $4,84 \pm 0,2\%$ 19 yoshgacha, $34,4 \pm 0,45\%$ 20-49 yoshgacha, $60,7 \pm 0,46\%$ 50 yoshdan yuqori aholi yosh guruhlarida hissasiga to'g'ri kelmoqda. (3.6-rasm). Koronavirus infeksiyasi aniqlanib kasalxonada davolanayotganlarning 60,7% qismi yoshi 50 yoshdan oshgan bemorlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Jami COVID-19 dan kasallanganlarning orasida keksa yoshdagi bemorlar JSST va boshqa turli adabiyotlarda [124] keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra xam, SARS CoV-2 ning dunyo mamlakatlarida tarqalganlik darajasi keksa yosh guruhlarida va kattalarda yuqori bo'lmoqda.

COVID-19 kasalligi bilan kasallangan bemorlarni yosh va jins guruhlari bo'yicha tahlil qilinganda 20 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlari orasida ikkala jins vakillari orasida xam kasallanish deyarli bir xil tarqalganligini, bunda erkaklar $4,88 \pm 0,2\%$, ayollar $4,81 \pm 0,2\%$ ni tashkil qilishini ko'rsatdi. Bu yurtimizda ushbu yosh guruhlarning hayot tarzi va faoliyati deyarli bir xil ekanligidan ya'ni maktab, litsey va kollejlarda tahsil olishlari bilan izohlasak bo'ladi. Kasallanganlarning 20-49 yosh guruhlari orasida erkaklarning ulushi yuqori ($34,4 \pm 0,45\%$), ayollarda esa bu ulush biroz kamroq ($29 \pm 0,43\%$) ekanligini ko'rsatdi. Mamlakatimizda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan aholi orasida erkaklarning ulushi ayollarga nisbatan ushbu yosh guruhlari orasida yuqori foizlarni tashkil qildi bu esa pandemiya davrida erkaklarning mehnat faoliyati sababli jamoat joylarida, umumiy ovqatlanish shaxobchalarida, jamoat transportida harakatlanishi, ko'proq kontaktda bo'lish oqibatida bu kasallikka chalinish ehtimoli yuqori bo'lgan. 2020-yil holatiga ko'ra 50 yoshdan yuqori yosh guruhlari orasida yurtimizda ayollar 52% ni, erkaklarda esa 48% ni tashkil qilgan bo'lsa, kasallanish ko'rsatkichi esa tegishli ravishda $66,2 \pm 0,45\%$ va $61 \pm 0,46\%$ ni tashkil qildi (1.4-rasm).



1.4-rasm.COVID-19 ni yosh va jins guruhlari bo'yicha taqsimlanishi (%)

Koronavirus infeksiyasi bilan kasallanish, jinslar guruhlari orasida statistik ishonchli farqqa ega bo'lmasa-da, ularning yoshlari oshib borishiga mos holda kasallanish ko'rsatkichlarida ham keskin ko'payish qayd etildi.

Epidemiyaning 2021-yilgi mavsumida bolalar orasida kasallanish 10-12 hafta davomida eng ko‘p uchradi. Bu yurtimizga kirib kelgan yangi Britaniya shtammi (betta) hisobiga qayd etildi. Dunyo mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra COVID-19 ning mazkur shtammi ko‘proq bolalar va yoshlarda aniqlanmoqda xamda kasallik belgilari deyarli o‘zgarishsiz qolmoqda.

Shunday qilib COVID-19 kasalligining 2 yillik tahlillari shuni ko‘rsatdiki yoshi katta aholi guruhlari kasallik xavfining asosiy kontingentini tashkil qilmoqda. 2019-2021-yillardagi epidemik vaziyatdan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, epidemik vaziyatning kuchayishi davrida ayniqsa yangi modifikatsiyalangan SARS-CoV-2 virusi shtammlarning paydo bo‘lishi boshqa yoshdagi kontingentlar orasida kasallanish ko‘rsatkichining o‘zgarishi tufayli, yosh tarkibi sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin.

COVID-19 bilan kasallanish orasidagi farq faqatgina hududlargagina xos bo‘lmay, balki kasalliklarni aniqlash va ro‘yxatga olish hamda ularni hisoblash usullariga, shuningdek davolash-profilaktika muassasalarida faoliyat olib borayotgan, kadrlar kasb mahoratiga, tibbiy xizmatning ommabopligi va boshqa omillarga ham bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda koronavirus infeksiyasining eng yuqori o‘sish davri so‘nggi 2 yilda yilning 3 choragiga (iyul, avgust, sentyabr) to‘g‘ri keldi. Koronavirus infeksiyasi ko‘plab boshqa virusli infeksiyalar kabi mavsumiy xarakterga ega.

II BOB. COVID-19 kasalligining klinik kechish xususiyatlari

2.1. Bemorlarda kasallik darajalarining farqlanishi va o'ziga xos xususiyatlari

COVID-19 kasalligining o'ziga xos ko'rinishi va kechishining 4ta shakli kuzatiladi: qoniqarli; o'rta-og'ir; og'ir; o'ta og'ir (kritik).

Xitoyning "Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi" ma'lumotlariga ko'ra COVID-19 kasalligi 81% yengil holatda (o'choqli pnevmoniya bor yoki yo'q), 14% og'ir darajada (gipoksiya, nafas qisilishi, o'pkaning yarmidan ko'pi 24-48 soat ichida zararlangan), bemorlarning 5% esa o'ta og'ir darajada xastalangan (o'tkir respirator distress sindrom, shok, nafas yetishmovchiligi, poliorgan disfunktsiyasi), va jami holatlarning 2,3% o'limga olib keldi. [26,20]. Ammo pandemiyaning og'irligi nafaqat o'lim holatlariga balki yosh taqsimotiga undan tashqari hujum tezligiga ham bog'liq.


Umuman olganda, infeksiyalarning taxminan 90% asoratsiz, oligosimptomatik yoki kasalxonaga yotqizishga olib kelmaydigan o'rtacha simptomlar bilan kechadi. Kattaroq yosh, gipertoniya, surunkali yurak yoki o'pka kasalliklari va immunitetning pastligi kasallikni og'ir darajada o'tkazish uchun xavf omillari hisoblanadi. Kasalxonaga yotqizilgan bemorlarning 25% yuqori tezlikda organlarni almashtirish terapiyasi (75% invaziv ventilyatsiya, 25 % buyrakni almashtirish terapiyasi) bilan intensiv terapiyani talab qiladi [169,56]. Shifoxona xizmatlariga bo'lgan talabni bashorat qilish uchun esa kasalxonaga yotqizilishi kerak bo'lgan bemorlar sonini va xar bir kishi statsionar yordamga qancha vaqt muhtoj bo'lishini taxmin qilish kerak. Shu bilan birga, kasalxonalarda qolish muddatini baholash individual bemorlarni kuzatishni talab qiladi. COVID-19 xar xil darajadagi og'irlikka ega. Bu darajalar statsionar yordam, bemorlarni ventilyatsiyasi uchun intubatsiya qilish mumkin bo'lgan reanimatsiya bo'limlariga va umumiy parvarishga qarab o'zgarishi mumkin [51,116]. Davolashning samarali usullari ko'payishi xodimlar, o'rinlar va jihozlar sonining yetarliligi, parvarishning davomiyligi va darajasiga ta'sir qilishi mumkin. Bo'limlarda bemorlarning davolanish muddati Xitoyda o'rtacha 4 kundan 53 kungacha, reanimatsiyada 6 kundan 12 kungacha bo'lgan.

SARS-CoV-2 so'nggi 9 oy ichida butun dunyo bo'ylab tez tarqaldi va qattiq nazorat choralari ba'zi Osiyo mamlakatlarida qo'llanila boshlandi masalan, Xitoy,

Koreya, Vetnamda aholining yashash va ishlash sharoitlari jamoat joylarida yurish va ovqatlanish tartibiga ko‘plab cheklovlar kiritildi, biroq shuncha kiritilgan cheklovlarga qaramay SARS-CoV-2 epidemiyasining ko‘plab mamlakatlarda yangi holatlari qayd etilishi kuzatilmoqda [143,100,168,156,199,127]. 2020-yil aprel oyi oxirida dunyo bo‘ylab 3 millionga yaqin holatlar qayd etilgan bo‘lsa bundan 200 000 ga yaqin o‘lim holatlari kuzatildi . 2020-yil avgust oyi oxirida esa 25 milliondan ortiq inson ushbu virus bilan zararlangan va 800 000 ga yaqin o‘lim holatlari tasdiqlangan [180,175,164 ,135,157 ,131,73].

Xitoyning “Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi” ma’lumotlariga ko‘ra COVID-19 kasalligi 81% yengil holatda (o‘choqli pnevmoniya bor yoki yo‘q), 14% og‘ir darajada (gipoksiya, nafas qisilishi, o‘pkaning yarmidan ko‘pi 24-48 soat ichida zararlangan), bemorlarning 5% esa o‘ta og‘ir darajada xastalangan (o‘tkir respirator distress sindrom, shok, nafas yetishmovchiligi, poliorgan disfunktsiyasi), va jami holatlarning 2,3% o‘limga olib keldi. [216, 220].

Tadqiqotga jalb etilgan 10848 nafar bemorlardan $44,8 \pm 0,2\%$ qoniqarli, $33,6 \pm 0,2\%$ o‘rta og‘ir, $6,43 \pm 0,05\%$ og‘ir, $15,17 \pm 0,11\%$ o‘ta og‘ir holatda o‘tkazishgan. Eraklarda ayollarga nisbatan tegishli ravishda kasallikning og‘ir va o‘ta og‘ir darajalari bir oz ko‘proq qayd etildi (11,14%;10,46%) (2.1-rasm).




2.1-rasm. Bemorlarda COVID-19 kasalligining kechish darajalari (%)

Koronavirus infeksiyasi asosan o‘pka to‘qimasini zararlaydi. Buni oldini olish barcha tibbiyot xodimlaridan ayniqsa anesteziologlar va reanimatologlardan muhim mas’uliyat talab etadi. Nafas yetishmovchiligi bilan xastalangan bemorlar bir qator o‘ziga

xos reanimatsion tadbirlarni o'tkazishni talab etadi. Og'ir nafas yetishmovchiligi bilan intensiv terapiya bo'limiga (ITB) qabul qilingan bemorlar 65 yoshdan katta bo'lib surunkali kasalliklar (qandli diabet, yurak ishemik kasalligi, serebrovaskulyar kasallik, nevrologik patologiya, gipertoniya, onkologik kasalliklar, gematologik kasalliklar, surunkali virusli kasalliklar, qon ivish tizimidagi) borligi bilan aziyat chekadilar. Bu omillarning barchasi reanimatsiya bo'limiga qabul qilingan bemorlar ko'rsatkichlariga ko'ra og'ir yoki o'ta og'ir bemorlar deb tasniflanishini bildiradi.

Shifoxonada davolangan bemorlarning kasalxona bo'limlarida taqsimlanishini tahlil qilganimizda jami kasallanganlarning $92,9 \pm 0,24\%$ kasalxonaning oddiy bloklariga, qolgan $7,1 \pm 0,24\%$ qismi reanimatsiya bo'limiga qabul qilingan. Bundan 0-39 yosh guruhlarida reanimatsiyaga tushganlar 3,67%, 40-59 yoshdagilar 28,83%, 60 va undan kattalar esa 67,5% ni tashkil qilgan (2.2-rasm).



2.2-rasm. Respublika maxsus 2 son Zangiota shifoxonasi davolangan 10848 nafar bemorlarning bo'limlarda va yosh bo'yicha taqsimlanishi (%).

Kasalxonalarda davolanayotgan bemorlarning kislorodga bo'lgan ehtiyoji, kasallikning turli (qoniqarli. o'rta og'ir, og'ir va o'ta og'ir) xil darajalariga qarab xar xil tus olmoqda va buning uchun shifokorlar sun'iy nafas oldirish terapiyasini qo'llashmoqda. Hozirgi vaqtda COVID-19 bilan xastalangan bemorlarni kasalxonalarda sun'iy nafas oldirish terapiyasining ko'plab variantlari mavjud: kislorodli ingolyatsiya (past oqimi-15l/mingacha, yuqori oqim-60l/mingacha), o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi (Invaziv bo'lmagan va invaziv mexanik ventilyatsiya) va yuqori chastotali shamollatish.

Nafas olish terapiyasini tanlash o'tkir respirator distress sindrom (O'RDS) kuchayganligiga bog'liq. Yurtimizda ham koronavirusga ixtisoslashtirilgan maxsus shifoxonalarda bemorlar reanimatsiyada yoki oddiy bo'limlarda davolanganda, kislorodga bo'lgan ehtiyoj davolanish bosqichida juda katta ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlangan. Bu ayniqsa bemorlarning yosh guruhlari bo'yicha kislorodga bo'lgan ehtiyojida juda katta tafovutga ega bo'ldi. Kasallikni invaziv usulda kislorod qabul qilib o'tkazgan bemorlarni tahlil qilganimizda jami 75 ta bemorning 49 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlari orasida bu ko'rsatkich umuman qayd etilmagan. 60 va undan yuqori yosh guruhlarda esa bu ulush 89,3% ni tashkil qilmoqda. Noinvaziv usulda (maskali, SIPAP) kislorod qabul qilib o'tkazgan bemorlarda ham 50 yoshdan oshgan bemorlarning ulushi ko'p bo'lmoqda (89,9%) (2.1-jadval).

2.1-jadval

Kasalxonada yotgan bemorlarning yosh guruhlari o'rtasida kislorodga bo'lgan ehtiyoji (%)

Yosh guruhlari	jami	O‘SV (IVL)				Erkin nafas
		Invaziv	noinvaziv	maskali	Burun konvula	
			maskali(SIPAP)			
0-19	525	-	-	-	2,2/23,8	88,3/76,2
20-29	613	-	0,2/0,2	2,0/1,0	2,5/22,3	10,4/76,5
30-39	1203	-	2,1/0,7	4,3/1,1	10,6/49,2	13,0/49,2
40-49	1612	-	7,8/1,9	9,6/1,8	19,2/66,2	10,7/30,1
50-59	2536	10,7/0,3	24,1/3,7	19,9/2,4	24,5/53,7	22,3/39,9
60 va undan yuqori	4359	89,3/1,5	65,8/5,8	64,2/4,4	40,9/52,2	34,7/36,0
Jami	10848	100/0,7	100/3,6	100/2,8	100/51,2	100/41,7

Izoh: kasrning surati xar bir grafadagi ma'lumotlarning jamiga nisbatan %
kasrning mahrajida xar bir tegishli yoshlarga nisbatan ulushi

COVID-19 pandemiyasi sog'liqni saqlash tizimiga misli ko'rilmagan yukni qo'ydi, chunki butun dunyoda kasalxonalar va reanimatsiya bo'limlarida tibbiy yordamga bo'lgan talab keskin ko'paydi. Pandemiya avj olgan sari sog'liqni saqlash resurslariga (o'rinlar, to'shaklar, xodimlar, asbob-uskunalar) bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash ko'plab mamlakatlar uchun asosiy ustuvor vazifaga aylanmoqda. Kelgusida bu resurslarga bo'lgan talabni bashorat qilish uchun COVID-19 bilan kasallangan bemorlar turli darajadagi statsionar yordamga qancha vaqt muhtoj bo'lishini baholash kerak.

Shifoxona xizmatlariga bo'lgan talabni bashorat qilish uchun kasalxonaga yotqizilishi kerak bo'lgan bemorlar sonini va xar bir kishi statsionar yordamga qancha vaqt muhtoj bo'lishini aniqlash lozim. Shu bilan birga, kasalxonalarda qolish muddatini baholash individual bemorlarni kuzatishni talab qiladi. COVID-19 xar xil darajadagi og'irlikka ega. Bu darajalar statsionar yordam, bemorlarni ventilyatsiyasi uchun intubatsiya qilish mumkin bo'lgan reanimatsiya bo'limlariga va umumiy parvarishga qarab o'zgarishi mumkin [51,116]. Davolashning samarali usullari ko'payishi xodimlar, o'rinlar va jihozlar sonining yetarliligi, parvarishning sifati, davomiyligi va darajasiga ta'sir qilishi mumkin. Bo'limlarda bemorlarning davolanish muddati Xitoyda o'rtacha 4-53 kunni, reanimatsiyada 6-12 kunni tashkil etdi [176,166] .

2.2. Xamroh kasalligi bor bemorlarda COVID-19 kasalligining kechish xususiyatlari

Koronavirus infeksiyasining tarqalishi, o'lim holatlari, ayniqsa surunkali kasalliklari bor bo'lgan aholi guruhlari orasida ko'proq uchramoqda. Agar bemorda yurak-qon tomir kasalliklari va boshqa hamroh kasalliklardan asosiysi bo'lsa, u holda SARS-CoV-2 virusi bilan kasallanish o'lim ko'rsatkichining eng yuqori ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. [113,54]. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki qandli diabet (QD) bilan kasallangan bemorlar COVID-19 infeksiyasini yuqtirishganda o'lim xavfi yuqori bo'lmoqda bu esa o'z navbatida COVID-19 o'limidan taxminan 3 marotaba yuqori. COVID-19 bilan og'rigan bemorlarning o'limiga olib keladigan keng tarqalgan kasalliklardan yana biri bu dunyodagi o'limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadigan gipertenziyadir [147].

Arterial gipertenziya — Koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda eng ko'p uchraydigan yondosh kasallik ekanligi ko'pgina tadqiqotlarda qayd etilmoqda [29,190,189,60,4,72,121,19,107,112] bundan tashqari yurak-qon tomir kasalliklari bemorlarda yuqori darajada tarqalgan [138,84,142,16,95,177]. Ko'pgina hisobotlarda COVID-19 kasalligi va o'lim bilan bog'liq holatlarni yuzaga keltirishda ortiqcha tana vaznining ahamiyati yuqoriligicha qolmoqda [11,23].

Mamlakatimizda ham jami 1862 nafar bemorlardan yondosh kasalliklar mavjudligi va ularning kasalxonada davolanish kunlarini tahlil qilganimizda, bemorlarning 974

($52,3 \pm 1,15\%$) tasida ya'ni yarmidan ko'prog'i yondosh kasalliklar mavjudligi aniqlandi va ularning o'rtacha davolanish muddati $13,35 \pm 0,17$ kunni tashkil qilgani holda, 2 va undan ortiq xamroh kasalliklari bor bemorlarning davolanish muddati $16,3 \pm 0,17$ kunni, xamroh kasalliklari yo'q bemorlarning davolanish muddati esa o'rtacha $9,5 \pm 0,15$ kunni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, yondosh kasalliklari bor bemorlarning COVID-19 kasalligidan statsionarda bo'lish va davolanish muddatlari sezilarli darajada ko'p bo'lmoqda (2.2-jadval).

2.2-jadval

Yondosh kasalliklari mavjud COVID-19 bemorlarining kasalxonada davolanish muddati

№	Yondosh kasalliklarning mavjudligi	Davolanish muddati (kun)
1	Yondosh kasalliklari mavjud emas	$9,5 \pm 0,15$
2	Yondosh kasalliklari mavjud	$13,4 \pm 0,16$
3	2 va undan ortiq yondosh kasalliklari mavjud	$16,3 \pm 0,17$

Koronavirus infeksiyasi bilan kasallanish tarqalishi, o'lim holatlari, yondosh kasalliklari bor bo'lgan aholi guruhlari orasida ko'proq uchramoqda. Agar bemorda yurak-qon tomir kasalliklari va boshqa hamroh kasalliklardan asosiysi bo'lsa, u holda SARS-CoV-2 virusi bilan kasallanish va o'lim ko'rsatkichi eng yuqori [113,54].

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki qandli diabet (QD) bilan kasallangan bemorlar COVID-19 infeksiyasini yuqtirishganda, o'lim xavfi umumiy o'lim ko'rsatkichidan taxminan 3 marotaba yuqori [77,137]. Bemorlarning o'limiga olib keladigan keng tarqalgan kasalliklardan yana biri bu dunyodagi o'limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadigan gipertenziyadir [147]. Potensial xavf omillari keksa yoshdagi surunkali kasalliklar mavjud odamlar bo'lib bunday aholi guruhlari nazoratga olish kasallikni prognozlash va erta aniqlash imkonini beradi.

Koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda yondosh-surunkali kasalliklarning mavjudligi bilan bir qatorda ularning qay darajada kechayotganligini tahlil qildik va baholadik. Olingan natijalar kelajakda kasallikni bashorat qilish va

davolashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lamini kengaytirish va samaradorligini oshirishga va buning natijasida bemorlarni kasallikning og‘ir va o‘ta og‘ir holatlarga tushib qolishini oldini olishga katta hissa qo‘shadi.

Respublika maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasida davolangan yondosh-surunkali kasalliklari mavjud 974 nafar bemorlarda kasalliklarning qaysi turlari ko‘proq uchrayotganligi, ularning COVID-19 ning kechishiga ta‘sirini bemor kartalaridan retrospektiv tahlil qildik. Olingan ma‘lumotlarga ko‘ra jami yondosh-surunkali kasalliklari bor bemorlarning $31,3 \pm 1,32$ da yurak ishemik kasalligi (YUIK), stenokardiya, qon-tomir kasalliklari, $20,9 \pm 1,3\%$ da qandli diabet, $16,8 \pm 1,19\%$ da gipertoniya, $12,7 \pm 1,06\%$ da nafas yo‘llari surunkali kasalliklari, $3,5 \pm 0,58\%$ da anemiya, $2,9 \pm 0,53\%$ da semizlik $11,9 \pm 0,73\%$ da boshqa kasalliklar yondosh-surunkali kasalliklari bor sifatida qayd etilgan (2.3-jadval).

2.3-jadval

COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda yondosh kasalliklarning ulushi (%)

Rang №	Yondosh kasalliklar	Ulushi (%)
1	YUIK.Qon-tomir kasalliklari.stenokardiya.IBS va gipertoniya	$31,3 \pm 1,32$
2	Qandli diabet	$20,9 \pm 1,3$
3	Gipertoniya	$16,8 \pm 1,19$
4	Nafas yo‘llari surunkali kasalliklari va surunkali bronxit	$12,7 \pm 1,06$
5	Anemiya	$3,5 \pm 0,58$
6	Semizlik	$2,9 \pm 0,53$
7	Boshqa kasalliklar	$11,9 \pm 0,73$

Shunday qilib Aholining yoshi oshib borishi bilan koronavirus infeksiyasi bilan kasallanish ko‘rsatkichi keskin ko‘payib bormoqda va uning eng yuqori darajasi 60 yosh va undan katta aholi guruhiga to‘g‘ri keldi. Jami statsionarga yotqizilgan bemorlarning $7,1 \pm 0,45\%$, reanimatsiyada davolangan ularning ichidan 60 va undan yuqori yoshli bemorlar $67,5 \pm 0,45\%$ tashkil etdi. Bemorlar orasida kasallikni og‘ir va o‘ta og‘ir darajada

o'tkazayotganlarning ulushi 21,6% ni tashkil qilgani holda, erkaklar va ayollar orasida kasallikning kechishi jihatidan statistik ishonchli farq aniqlanmadi. Bemorlarning kasalxonalarda davolanish muddatlari yondosh-surunkali kasalliklar bor bemorlarda $13,45 \pm 0,17$ kunni, 2 va undan ortiq yondosh kasalliklari bor bemorlarning davolanish muddati $16,3 \pm 0,17$ kunni, surunkali kasalliklari yo'q bemorlarda $9,5 \pm 0,15$ kunni tashkil qilmoqda. Surunkali kasalligi bor bemorlarning COVID-19 kasalligiga chalinish ehtimoli yuqori ($52,3 \pm 1,15\%$), ularning orasida ayniqsa qandli diabet, YUIK, gipertoniya, nafas a'zolari surunkali kasalliklari yuqori ulushlarni tashkil qilayotgan bo'lsa ($81,7 \pm 1,03\%$), bu kasalliklar bilan kasallangan bemorlar COVID-19 kasalligini ham og'ir va o'ta og'ir darajada o'tkazishmoqda (89%).

III BOB. COVID-19 KASALLIGI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI GIGIYENIK OMILLAR VA ULARNI INTEGRAL BAHOLASH

3.1. Koronavirus infeksiyasi (SARS CoV-2) tarqalganligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-gigiyenik va tibbiy-biologik omillar

COVID-19dan kasallanish holatlari haqidagi ma'lumotlarni baholaganimizda: erkak jinsi, qora tanli millat, ijtimoiy yetishmovchilik (ta'lim, uy-joy va daromad bilan o'lganadigan), sog'liqni saqlash tizimida faoliyat ko'rsatayotgan xodim, ishsiz yoki nafaqada bo'lish, hozirgi yoki sobiq chekuvchi, semizlik, surunkali kasalliklar (yurak qon tomir kasalliklari, gipertoniya, qandli diabet, nafas olish yo'llari surunkali kasalliklari, autoimmun kasalliklar, saraton) potensial xavf guruhiga kiritildi. Sog'liqni saqlash uchun bu ko'rsatkichlarni aniqlash, kelajakda kasallikka chalinish darajasini va kasallikka chalingan vaqtda og'ir holatlarga tushib qolish mumkinligini prognoz qiladi hamda to'g'ri davolash va profilaktika chora-tadbirlarini yo'lga qo'yishda amaliy yordam beradi. Bundan tashqari COVID-19 simptomlarini boshqa virusli infeksiyalar keltirib chiqaradigan kasalliklar bilan differensial diagnostika qilishda yordam beradi. Shunga qaramay bu ma'lumotlarning noto'g'ri berilishi yoki taqdim etmaslik kasallanishni prognozlash borasida olib borilayotgan tadbirlarga to'sqinlik qiladi [188,110].

Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi (CDC) ma'lumotlariga ko'ra, 65 yoshdan oshgan shaxslar Qo'shma Shtatlardagi umumiy aholining 17 foizini tashkil qilsa-da, ular COVID-19 infeksiyasining 31 foizini, kasalxonaga yotqizilganlarning 45 foizini tashkil qilmoqda. Intensiv terapiya bo'limiga yotqizilganlar va kasallikdan vafot etganlarning 80% keksa yoshdagi aholi hissasiga to'g'ri kelmoqda [33]. Bu shuni ko'rsatadiki, keksa odamlarda COVID-19 ni yuqtirish ehtimoli ko'proq va umumiy aholiga qaraganda kasallikni og'irroq holatda o'tkazmoqda [24]. Bemorlar orasida eng ko'p uchraydigan alomatlar isitma (98%), yo'tal (76%), nafas qisilishi (55%) va miyalgiya yoki charchoq (44% gacha) ekanligi tasdiqlandi [67, 201]. Bu alomatlar ham keksa yoshdagi odamlarda ko'proq va og'irroq shakllarda uchramoqda. SARS-CoV-2 infeksiyasi bilan kasallangan, o'rtacha yoshi 70 yosh bo'lgan 21 nafar og'ir bemor o'rganilganda eng ko'p uchraydigan alomatlar nafas qisilishi (76%), isitma (52%) va yo'tal (48%) ekanligini aniqlandi. Keksalar odamlarning 86% da surunkali kasalliklar

mavjud bo'lib, ular orasida eng ko'p tarqalgani gipertoniya (48%), o'tkir yurak yetishmovchiligi (43%), surunkali obstruktiv o'pka kasalligi (SOO'K) (33%) va qandli diabetdir (33%) [5]. Aksariyat keksa odamlarda SARS-CoV-2 tufayli organ shikastlanishining ba'zi shakllari mavjud, jumladan o'tkir respirator kasallik sindromi (71%), o'tkir buyrak shikastlanishi (20%), yurak shikastlanishi (33%) va jigar disfunksiyasi (15%), ushbu shikastlanishlar davolash uchun vazopressor yordamini talab qildi [198, 57, 172, 154]. Keksa bemorlarda o'lim darajasi xam yuqoriligicha qolmoqda [177].

Keksa yoshli va erkak jinsiga mansub aholi vakillari COVID-19 ning yuqori tarqalishi va og'irroq klinik kechishi bilan bog'liq bo'lgan epidemiologik xususiyatlardan biri bo'lib qolmoqda.

Epidemiyaning dastlabki oylarida COVID-19 ning eng yuqori tarqalishi dunyoning aksariyat mintaqalarida keksa odamlarda kuzatilgan bo'lishiga qaramay, Janubiy Koreyada [45] SARS-CoV-2 infeksiyasi bilan kasallangan eng yuqori yosh darajasi 20-29 yoshni tashkil qilgan. bu ehtimol ijtimoiy sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin.

Boshqa barcha mamlakatlarda COVID-19 ning aholi orasida eng ko'p tarqalishi keksa odamlarda kuzatilgan. Xitoy mamlakatida (72 314 ta holat, 2020-yil 11-fevralgacha aniqlangan) [160] kasallanishning yuqori cho'qqisi 50-59 yoshdagi odamlarda bo'lgan. Bu davlatda umumiy o'lim darajasi 2-3% ni tashkil etdi, ammo 80 va undan katta yoshdagi shaxslarda bu 8-14% gacha ko'tarildi. Qandli diabetning tarqalishi umumiy populyatsiyada ham, COVID-19 bilan kasallangan bemorlar orasida ham yoshi kattalarda ko'p kuzatilmoqda. Shunga ko'ra, qandli diabet va COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning o'rtacha yoshi diabeti bo'lmaganlarga qaraganda kattaroqdir. Boshqa bir tadqiqotda qandli diabet bilan og'riq va COVID-19 bilan kasallangan bemor diabetga chalinmagan bemorlardan kamida 10 yosh katta bo'lganligi qayd etilgan [28]. Bundan tashqari, yoshga bog'liq bo'lgan xususiyatlar kasalxonada o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf omillari turiga kiritilmoqda. Xulosa qilib aytganda, 65 yoshdan oshgan odamlarda diabetning tarqalishi yoshga qarab o'sib boradi. Ikkinchidan, 65 yoshdan oshgan odamlarda diabetning uzoq davom etishi va diabetik asoratlarning ko'proq tarqalish ehtimoli yuqoriroqdir. Uchinchidan, diabet va keksa yoshdagi odamlardagi

yurak-qon tomir kasalliklari, gipertenziya va semirish kabi kasalliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

SARS-CoV-2 bilan kasallangan odamlarning umumiy jinsiy taqsimotiga qaramay (erkak 51%, ayol 49%), o'lim holatlari erkaklarda (2,8%) ayollarga (1,7%) nisbatan yuqoriroq bo'lmoqda. 80 va undan katta yoshdagilar 50-59 yoshdagilarga nisbatan 12 baravar ko'proq kasallikka chalinishgan. AQSH aholisining 10 foizini tashkil etuvchi aholi tarkibining ma'lumotlar bazasining 29 ta tahlili shuni ko'rsatdiki, COVID-19 bilan kasalxonaga yotqizilgan odamlarning 33 foizi afro-amerikaliklardir, garchi ular mintaqadagi aholining 18 foizini tashkil qilsa-da kasallikka ko'proq chalinishgan. Jons Xopkins universiteti va Amerika hamjamiyatining so'rovnomasida [161] AQSHning 131 ta qora tanli okrugida infeksiya va o'lim ko'rsatkichlari asosan oq tanli okruglarga qaraganda mos ravishda uch va olti baravar yuqori ekanligini xabar qildi. Nyu-York shahrida ispan yoki lotinlar aholining 28 foizini tashkil qiladi, ammo COVID-19dan o'lim holatlarining 34 foizi [61] qora tanli aholi vakillariga tegishli ekanligi aniqlandi.

Etnik tarkibi bo'yicha qayd etilgan COVID-19 kasalligining yuqori darajasi biologik omillarni aks ettirmaydi va asosan turmush tarzi va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq hisoblanadi. Garchi koronavirus kasalligiga chalinishda yondosh kasalliklarning ahamiyati haqidagi to'liq ma'lumotlar hali mavjud bo'lmasa-da, gipertenziya, diabet, semirish va yurak-qon tomir kasalliklari xavf omillarining asosiy qismini tashkil qilmoqda. Bu holatlarning ko'pligi aholining ijtimoiy-iqtisodiy tarafdin qiyin holatga tushib qolish ehtimolini oshiradi, chunki ular ko'pincha kambag'al va gavjum uylarda istiqomat qiladilar va buning natijasida virus yuqish xavfi ortadi. Bundan tashqari, Hindiston, Pokiston va Bangladeshda infeksiyaning tarqalishiga geografik va iqlim ko'rsatkichlari o'z ta'sirini o'tkazishi aniqlandi [34,80].

SARS-CoV-2 ning odamdan odamga yuqishi, shuningdek, teri bilan bevosita aloqa qilish yoki ifloslangan yuzalar orqali bilvosita aloqa qilish orqali ham osonlashadi. Van Doremalen va boshqalar [167] SARS-CoV-2 ning buyumlar sirtida infeksiya bir necha kun davomida yashovchan bo'lishi mumkinligini aniqladi, bu kontakt orqali zararlanishning asosiy omillaridan biridir. Shunisi e'tiborga molikki, COVID-19

bemorlari bilan uyda o'tkazilgan tadqiqotlarda virus yuzalarning 5% dan kamrog'ida aniqlangan.

Aerozollar gazda tarqalgan mayda qattiq zarralar yoki tomchilardir. Virus zarralarini o'z ichiga olgan aerosollar infeksiyalangan odamlar yo'talganda, hatto gaplashganda yoki nafas olganda chiqariladi. Gaplashayotganda nafas yo'llaridan chiqarib yuboriladigan zarrachalar soni 300 000 zarracha bo'lishi mumkin va bu zarrachalar odamdan odamga o'tganda o'zgarib turadi. Vang va boshqalar [173] olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, nafas olish jarayonida odamning bir marta yo'talishidan (ml uchun $2,35 \times 10^9$ nusxa) $1,23 \times 10^5$ nusxada virus ajralishi mumkin.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va hukumatlar asosan sanitariya-gigiyenik chora-tadbirlar, odamlar bilan aloqani cheklash va ijtimoiy masofani saqlash orqali tomchilar va sirt orqali yuqishning oldini olishga e'tibor qaratmoqda. Uchinchi yo'l, aerosol zarrachalar orqali kasallik tarqalishi, uzoq vaqt davomida yetarlicha baholanmagan. Biroq, bu havo orqali yuqadigan yo'l SARS-CoV-2 uchun ishonchli yo'l bo'lishi mumkin va bu uning butun dunyo bo'ylab tez tarqalishiga yordam beradi. Gollandiyada o'tkazilgan tadqiqotda ventilyatsiya havo orqali koronavirus kasalligi yuqishning oldini olishda muhim omil ekanligi haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan[101].

Aholi salomatlik darajasi tibbiy-biologik, ijtimoiy-gigiyenik va boshqa omillar ta'siri ostida shakllanadi va ushbu omillarning mavjudligi ularning salomatligiga xam o'z ta'sirini o'tkazadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki omillarning har biri inson salomatligiga alohida tasir qilish bilan bir qatorda majmuaviy tarzda xam tasir o'tkazishi aniqlangan. Shu bilan bir qatorda aholi turmush sharoitining pasayishi ularning salomatlik ko'rsatkichlari yomonlashuviga xam olib kelishi mumkin. Oilalarning ijtimoiy-gigiyenik sharoitlari va tibbiy madaniyati ularning salomatlik ko'rsatkichlariga ham o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Kasalliklarning kelib chiqishiga oilalardagi ruhiy holatning yomon ahvoldaligi ham tasir o'tkazishi tasdiqlangan. Jumladan, tinch va osoyishta umr kechirayotgan oila a'zolarida turli xil kasalliklarning tarqalishi. oilasida urush janjallar va psixologik muhit yomon bo'lgan oilalarga qaraganda kamroq ekanligi ko'p olimlarning ilmiy izlanishlarida ta'kidlab o'tilgan [208,211,213].

Ayrim tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, tadqiqot o'tkazilgan oilalarda ovqatlanish sifati tahlil qilinganda, 80% dan ortiq holatlarda oilalar bir xil tarzda ovqatlanishlari, sut va sut mahsulotlarini, shuningdek organizmda qurilish materiali bo'lib hisoblangan hamda tarkibida yashash uchun zarur bo'lgan aminokislotalarni sintezlaydigan tuxum sarig'i, go'sht va go'sht mahsulotlari muntazam ravishda iste'mol qilmasliklari ma'lum bo'ldi [217,204].

Ijtimoiy jihatdan nosog'lom oilalar, ma'lumoti darajasi past, qoniqarsiz uy sharoitida yashagan, bir qancha zararli odatlarning mavjudligi, tibbiy faollik, o'zining, oila a'zolarining salomatligini mustahkamlashga qaratilgan faoliyati muammoligicha saqlanib qolmoqda. Yuqoridagi keltirilgan adabiyotlar sharhidan shuni xulosa qilish mumkinki, aholi salomatligini muhofazalashning asosiy vazifalaridan biri ular orasida uchraydigan o'tkir va surunkali kasalliklar va ularning oqibatida yuzaga keladigan o'limni kamaytirishdan iboratdir. Aholi orasida tarqalayotgan kasallik sabablarini joylardagi shart sharoitlardan kelib chiqqan holda, tashqi muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-biologik omillar, hamda ularni oilaning turmush tarzi bilan o'rganish ko'plab muammolarni bartaraf etishga hissa qo'shgan bo'lardi. Natijada kasallik va uning oqibatlarida yuzaga keladigan turli xil muammolar va ularni keltirib chiqaruvchi yetakchi xavf omillarini aniqlash, ularni bartaraf etish va salomatlik holatini yanada yaxshilash borasida qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoni yaratiladi [160,72].

Shuningdek, aholi orasida salomatlik darajasini baholash yuzasidan muntazam monitoringini olib borish, ularning salomatligiga ta'sir etuvchi yetakchi xavf omillarini erta aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish hamda davolash borasidagi chet el mutaxassislarining amaliy tajribasini o'rgangan xolda ularni amaliyotga tatbiq qilish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda so'nggi 2 yildagi COVID-19 ning epidemik jarayoni quyidagicha tavsiflanmoqda: aholi orasida ushbu infeksiyaning tarqalishi boshqa yuqumli kasalliklarga qaraganda eng yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi; barcha yosh guruhlarining kasallikka chalinish tendensiyasi mavjudligi; epidemik jarayonning hali xam mavjudligi; kasallikning notekis, ya'ni turli hududlarda turlicha taqsimlanayotganligi; yoshi katta

aholi guruhlarining kasallik bilan kasallanish darajasining yuqoriligi; kasallik tarqalishining yoz, kuz va qishki mavsumiyligi; yilning 3-choragida kasallanish eng yuqori darajaga ko'tarilishi; koronavirusning alfa, betta, gamma, yo'ta va yangi omikron shtammlarining birgalikda uzoq muddatli sirkulyatsiyasi; koronavirus infeksiyasining yangi shtammlarining davriy paydo bo'lishi.

Epidemik jarayon turli xil yo'nalishdagi omillarning majmuaviy ta'sirining natijasidir. Doimiy va uzoq vaqt davomida tasir qiluvchi omillar malum bir hududda va ma'lum bir vaqtda kasallanish darajasini belgilaydi. Doimiy omillarning butun majmuaviy ta'sirining natijasi kasallanish hisoblanadi [11].

Koronavirus infeksiyasida epidemik jarayonga tasir etuvchi omillar 2 asosiy guruhga bo'linadi: ijtimoiy-gigiyenik va tibbiy-biologik. Ularning ta'siri doimiy o'zgaruvchan va tasodifiy bo'lishi mumkin. Bir tomondan, qisqa inkubatsion davri, virusni yuqtirishning samarali respirator mexanizmi, aholining koronavirus infeksiyasiga yuqori darajada sezgirligi virusning yuqori yuqimlilik darajasini oshishiga va tez tarqalishiga yordam beradi. Ikkinchi tomondan aholining ijtimoiy turmush sharoiti: aholi zichligining oshishi, zamonaviy transport vositalaridan foydalangan xolda aholining intensiv migratsiyasi, yuqumlilik xavfi yuqori bo'lgan kontingentlarning aholi orasidagi yuqori nisbati ham virusning aholi orasida keng miqyosda tarqalishiga olib keladi [109,206]. Doimiy va uzoq muddat tasir o'tkazadigan omillar nafaqat bir hududda kasallanish darajasini belgilaydi, undan tashqari epidemiya jarayonini ma'lum yo'nalishlarda tezlatishi yoki kamaytirishi ham mumkin. Haqiqiy kasallanish darajasi turli xil omillarning majmuaviy ta'siri natijasidir [38].

COVID-19ning epidemik jarayonining rivojlanishida ijtimoiy omillar alohida ahamiyatga ega. Infeksiya tarqalishini nafas olish mexanizmi asosida samarali amalga oshirish imkoniyati faqat inson jamiyatining ijtimoiy mavjudligi sharoitida mumkin, bu koronavirus infeksiyasining odamlar orasida tarqalishining evolyutsion moslashuvi natijasidir. Shunday qilib, odamlarning ijtimoiy turmush tarzi koronavirus infeksiyasining bunday ommaviy (epidemiya, pandemiya) tarqalishini ta'minlash uchun asosdir. Ba'zi ijtimoiy omillar epidprotsessning sifat va miqdoriy parametrlariga qo'shimcha ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ijtimoiy-gigiyenik omillar

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasi o'laroq koronavirus kasalligiga chalingan bemorlarning turmush tarzi va turmush sifatini, kasallanishning tibbiy-ijtimoiy qirralarini, bemorlarning salomatlik holatini, uni keltirib chiqaruvchi xavf omillarini o'rganish natijasida va tizimli yondashuv asosida kasallanishni kamaytirish, oldini olish bo'yicha kasallikning ilmiy asoslangan birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi profilaktikasiga chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish imkoniyati yaratildi. Koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish uchun jamoat joylarida sanitariya-gigiyenik qoidalarga rioya qilish, xususan bir martalik tibbiy niqob taqish, oraliq masofani saqlash, antiseptik vositalarni ishlatish kabi omillar muhimdir. Jamoat joylarida sanitariya-gigiyenik qoidalarga rioya qilinganda kasallikning yuqish xavfi 3,6-martaga kamayishi qayd etildi (3.1- jadval).

3.1-jadval.

Sanitariya-gigiyenik omillarning ta'siri

Omillar	Omillar gradatsiyasi	Asosiy guruh (%) n=600 (R1)	Nazorat guruh (%) n=600 (R2)	Absolyut xavf (N)	Nisbiy xavf (R)
Jamoat joylarida sanitariya-gigiyenik qoidalarga rioya qilish (bir martalik tibbiy niqob, oraliq masofani saqlash, antiseptik vositalar)	Amal qildi	37,2±1,5	67,7±2,1	0,54	3,6
	Amal qilmadi	62,8±1,5	32,3±2,1	1,94	

Bemorlarning turmush tarzi va turmush sharoiti omillari (jon boshiga to'g'ri keladigan yashash maydoni, maishiy qulayliklarning: ichimlik suvi, isitish manbai, gaz, yoritish manbai, kanalizatsiya bilan ta'minlanish darajasi, xonaning sanitar-gigiyenik

holati: yorug'lik, namlik, tozalik va h.z.) tahlil qilindi. Tadqiqotga jalb qilingan bemorlardan $8,6 \pm 1,9\%$ ning yashash sharoitlari qoniqarsiz ekanligi, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich birmuncha yaxshiroq ekanligi aniqlangan xolda ($p < 0,001$) qoniqarsiz turmush sharoitida yashovchi aholining COVID-19 bilan kasallanish ehtimolligi, juda yaxshi sharoitda yashovchilarga qaraganda 4,1-martaga yuqori ekanligi aniqlandi. Ovqatlanish rejimi va xarakteri (ratsional ovqatlanish) ham kasallikning kelib chiqishi, uning kechishi va og'irlik darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazishi mumkinligi aniqlandi. So'rovnoma tahliliga ko'ra bemorlarning bor yo'g'i $29,2 \pm 2\%$ ovqatlanish rejimiga rioya qildi: shundan $9,4 \pm 1,2\%$ achchiq, sho'r, $11,9 \pm 1,32\%$ xolesteringa boy mahsulotlarni, $21,2 \pm 1,6\%$ qovurilgan mahsulotlarni ko'proq qabul qilishi tasdiqlandi.

Tadqiqot jarayonida asosiy va nazorat guruhidagilarning ovqat ratsionini ham tahlil qildik. Unga ko'ra asosiy guruhdagi shaxslar orasida un, dukkakli mahsulotlar, sut, go'sht mahsulotlari, baliq, meva va sabzavotlarni yetarli miqdorda qabul qilish $29,2 \pm 2\%$ ni tashkil qildi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich $53,3 \pm 1,7\%$ ga teng ($r < 0.001$). Demak, asosiy guruhda ovqatlanish rejimi to'g'ri tashkil qilinmagan va ovqatlanish ratsionida me'yorga e'tibor bermaydigan 2-3 barobar yuqori ekanligi aniqlandi.

Kunlik rejimni to'g'ri tashkil qilish, dam olish, toza havoda sayr, jismoniy mashqlar va sport turlari bilan shug'ullanish COVID-19 kasalligining profilaktikasida, hattoki uni davolashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni inobatga olgan holda tadqiqotga jalb qilingan asosiy va nazorat guruhidagi shaxslarning mazkur tadbirlarga bo'lgan munosabatlarini o'rgandik. Tahlil natijalariga ko'ra bemorlar orasida toza havoda sayr qilish va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish davomiyligi quyidagicha: har kuni 1 soatgacha toza havoda sayr qiladigan respondentlar $15,4 \pm 1,5\%$ ni, 3 soat va undan ko'p – $11,1 \pm 0,9\%$ ni tashkil qilayotgan bo'lsa, $62,3 \pm 1,8\%$ qismi jismoniy tarbiya bilan umuman shug'ullanmasligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich $38,2 \pm 2,2\%$ ($p < 0,001$) ni tashkil qildi. Toza havoda sayr qilish muntazam jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish odamlarning COVID-19 kasalligiga chalinish ehtimolligini 3,3-martaga kamaytirishi aniqlandi.

Kasalliklarning kechishiga ruhiy-emotsional omillar sezilarli ravishda ta'sir qiladi. Ruhiy emotsional buzilishlar, stresslar kasallik klinik kechishini og'irlashtirib, kasallikning og'ir kechishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotlarimiz koronavirus bilan kasallangan bemorlar oilasidagi ruhiy holat: oila a'zolari orasidagi salbiy munosabatlar, kelishmovchiliklar, oila a'zolaridan birining spirtli ichimliklarni iste'mol qilganligi, boquvchisini yo'qotganligi ularning ruhiyatiga, salomatligiga salbiy ko'rsatkichi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosiy guruhda $13,3 \pm 0,7\%$ da uyidagi ruhiy holat yomonligini va ushbu holat nazorat guruhidagilarga nisbatan 3-marta yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha nosog'lom turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan zararli odatlar har qanday kasallikning kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, chekish, spirtli ichimliklarni qabul qilish nafas a'zolari kasalliklarining kelib chiqishiga, organizm immun tizimining pasayishiga, buning natijasida esa surunkali kasalliklarning kelib chiqishiga turtki bo'ladi. Bemorlarning $67,1 \pm 1,9\%$ da, nazorat guruhdagilarning $49,1 \pm 2\%$ da zararli odatlar mavjud ($p=0,01$) (3.2-jadval).

3.2-jadval.

COVID-19 kasalligiga turmush tarzi omillari va zararli odatlarning ta'siri

Omillar	Omillar gradatsiyasi	Asosiy guruh (%) n=600 (R1)	Nazorat guruh (%) n=600 (R2)	Absolyut xavf (N)	Nisbiy xavf (R)
Yashash sharoiti	qoniqarsiz	$8,6 \pm 1,9$	$2,4 \pm 1,7$	3,58	4,1
	qoniqarli	$13,5 \pm 1,4$	$14,1 \pm 1,6$	0,96	
	yaxshi	$34,9 \pm 1,5$	$39,8 \pm 2,4$	0,87	
	juda yaxshi	$43,0 \pm 1,9$	$43,7 \pm 2,6$	1,0	
Oqilona ovqatlanish rejimi	rioya qilinadi	$29,2 \pm 2,0$	$53,1 \pm 2,2$	0,55	2,7
	rioya qilinmaydi	$70,8 \pm 2,0$	$46,9 \pm 2,2$	1,5	

Oilada iste'mol qiladigan mahsulotlar miqdorining yetarliligi:	yetarli	78,0±1,7	86,1±1,6	0,9	1,7
	yetarli emas	22,0±1,7	13,9±1,6	1,58	
Toza havoda sayr, jismoniy tarbiya bilan shug'ullani sh:	yo'q	62,3±1,8	38,2±2,2	1,6	3,3
	1 soat	15,4±1,5	21,1±1,8	0,73	
	2 soat	11,2±1,0	23,3±1,9	0,48	
	3 soat va undan ko'p	11,1±0,9	17,4±1,7	0,63	
Oiladagi ruhiy holat	yaxshi	86,7±0,7	95,1±0,6	0,9	3,0
	yomon	13,3±0,7	4,9±0,6	2,7	
Ishxonadagi ruhiy holat	yaxshi	77,8±1,7	81,0±1,8	0,96	1,2
	yomon	22,1±1,7	19,0±1,8	1,15	
Zararli odatlar	mavjud	67,1±1,9	49,1±2,0	1,37	2,3
	mavjud emas	32,9±1,9	50,9±2,2	0,7	
Spirтли ichimliklarni qabul qilish	Xar kuni	2,2±0,6	3,0±0,8	1,15	1,74
	Haftasiga 4-marta	23,1±1,7	20,0±1,8	1,0	
	Haftasiga 2-3 marta	12,0±1,3	14,1±1,6	0,85	
	Alohida holatlarda	62,7±2,0	62,9±2,2	0,66	
Mamlakatimizda COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolash 159 ta muassasalarida olib borildi va jami 25,200 o'rin, shu jumladan 2,500 reanimatsiya o'rini tashkil yetildi. Toshkent viloyatida 20 ming, Namangan, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida 7,085 o'ringa mo'ljallangan "karantin markazi" qurilib ishga tushirildi.

Toshkent viloyatida qisqa vaqt ichida 4000 o'ringa mo'ljallangan yangi koronavirus infeksiyasini davolashga mo'ljallangan maxsus klinika qurilib, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Bundan tashqari, 15,000 o'rinlar yaratildi, 58ta maxsus tarqatish markazlari, shu jumladan 1,225 reanimatsiya o'rinlari tashkil qilindi. Yengil va qoniqarli darajadagi bemorlarni ambulator davolash va uyda davolashni ta'minlash uchun har bir tumanda "COVID-poliklinikalari", call-markazlari, maxsus ko'chma brigadalar tashkil yetildi. Koronavirus kasalligi bilan og'rigan bemorlar ko'payishini oldini olish va davolashda Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va Germaniyadan 140 dan ortiq mutaxassis ishtirok yetdi. COVID-19 bilan og'rigan bemorlarni davolash uchun 9 ta klinik bayonnomalar ishlab chiqildi. Ushbu qilingan chora-tadbirlar mamlakatimizda davom etayotgan pandemiyaning jilovlashga o'zining katta hissasini qo'shdi.

Yurtimizda rasmiy malumotlarga ko'ra, 2022 yil 7 fevral holatiga ko'ra koronavirus infeksiyasi bilan kasallanib maxsus shifoxonalarda davolanayotganlar soni

15393 nafarni tashkil qilmoqda. Jumladan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida davolanayotgan bemorlar jami bemorlarning 31,8% ni tashkil qilmoqda (5.2-rasm). Yurtimizda samarali davolashga qaratilgan chora-tadbirlar va yangi davolash bayonnomalari samarasi o'laroq 2022-yilgi shifoxonalarda davolanayotganlar ulushi o'tgan yillarga qaraganda birmuncha pasaygan (0,7%) jumladan 3 bobda keltirib o'tilgan 2020 va 2021 yillardagi shifoxonalarda davolanayotgan bemorlar ulushi birmuncha yuqoriroq edi (2,2%). Hozirgi vaqtda bu ko'rsatkichlar albatta koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolash uchun mo'ljallangan respublika maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasi Zangiota 1 va 2 hisobiga to'g'ri keladi, ushbu shifoxonalarga pandemiya boshlangandan buyon 70 mingga yaqin bemor yotqizildi (2021 y iyun holatiga).



5.2-rasm. Respublikamiz hududlarida COVID-19 kasalligidan statsionar sharoitda davolanayotgan bemorlar ulushi (%) (2022 yil 7 fevral holatiga).

Yangi kasallikning kirib kelishi sog'liqni saqlash tizimiga, jumladan tizimda faoliyat ko'rsatayotgan shifokorlar zimmasiga og'ir yukni qo'ydi shuning uchun xam mamlakatimizda bu kasallik bo'yicha shifokorlarni o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha bir qancha tizimli o'quv seminar dasturlari tashkil qilindi. Bulardan, 36280 nafar tibbiyot xodimlari yangi koronavirus infeksiyasi keltirib chiqaruvchi COVID-19 kasalligini davolashning so'nggi usullari bo'yicha 18 soatlik o'quv dasturini yakunladilar

va 5046 nafar zaxiradagi shifokorlar, bulardan 421 nafar reanimatolog, 349 nafar pediatri o'qitildi. Pandemiya boshlangandan buyon shu vaqtga qadar kasalxonada davolanayotgan bemorlarga tibbiyot xodimlar tomonidan tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatilib kelinmoqda.

Koronavirus infeksiyasini davolash uchun tashkil etilgan maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasida davolanayotgan bemorlarning tibbiy-ijtimoiy yordam olish to'liq davlat ko'magi asosida olib borilmoqda.

Yuqumli kasalliklar bo'limiga jami 1680 bemor o'rni ajratilgan bo'lib bu o'rinlar bitta shifokor lavozimiga 9,8, o'rta tibbiyot xodimlari uchun 5, kichik tibbiyot xodimlari uchun 6,95 o'rin to'g'ri kelayotganligini ko'rsatadi. Gemodializ bo'limida bitta shifokor lavozimiga 2,85, o'rta tibbiyot xodimi uchun 1,54, kichik tibbiyot xodimiga 2,85 o'rin to'g'ri kelmoqda. COVID-19 kasalligini og'ir va o'ta og'ir darajada o'tkazayotganlar asosan reanimatsiya bo'limida davolanishmoqda bu albatta bo'limda yotgan xar bir bemor uchun alohida parvarish va davolash taktikasini talab qiladi shuning uchun xam reanimatsiya bo'limida shifokorlar uchun bitta lavozimga to'g'ri keladigan o'rin 1,85: o'rta tibbiyot xodimlari uchun 0,96, kichik tibbiyot xodimlari uchun 1,89 tani tashkil qilmoqda (5.1-jadval).

5.1-jadval

Respublika maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasi "Zangiota-2" ning lavozim Shtatlar soni. (2021 yil).

Tarkibiy bo'linmalar nomlanishi va lavozim nomlari	Блок (А,В,Е,Ғ,Г)								
	Yuqumli kasalliklar bo'limi (1680 o'rin uchun)	Bitta lavozimga to'g'ri keladigan o'rinlar soni	Gemodializ bo'limi (20 o'rin uchun)	Bitta lavozimga to'g'ri keladigan o'rinlar soni	Реанимация бўлими (288 ўрин учун)	Bitta lavozimga to'g'ri keladigan o'rinlar soni	Jarrohlik bo'limi (30 o'rin)	Bitta lavozimga to'g'ri keladigan o'rinlar soni	Jami o'rinlar soni
Shifokorlar	71	0,8		0,85	55	0,85		,28	40

O'rta tibbiyot xodimlari	36		3	0,54	99	0,96	1	0,72	59
Kichik tibbiyot xodimlari	41,5	0,95		0,85	52	0,89	0,5	0,2	10,0
Jami	48,5		7		06		7,5		409

Tarkibiy bo'linmalar nomlanishi va lavozim nomlari	Boshqa bo'limlar								JAM I
	Qabul bo'limi	Klinik diagnostika laboratoriyasi	bak laboratoriya bo'limi	Kardiologiya bo'limi	Umu mshif oxona xodimlari	Sterili zasiya bo'limi	Patana tomiya bo'limi	Boshqaruv xodimlari va boshqa xodimlar	
Shifokorlar		1		0	8				3
O'rta tibbiyot xodimlari	3	8,75			4				5,75
Kichik tibbiyot xodimlari	2	0,8			0				3,8
Jami	2	9,5	7	9	2			9	61,5

Olib borilgan tahlillarimizga asosan 2021 yilda ushbu shifoxonada lavozim o‘rinlarining bandlik darajasi shifokorlar uchun 95,6% ni, o‘rta tibbiyot xodimlari uchun 57,5% ni, kichik tibbiyot xodimlari uchun 52,2% ni tashkil qilgan (5.2-jadval). Bundan xulosa qilishimiz mumkinki 2021 yilda o‘rta tibbiyot xodimlari va kichik tibbiyot xodimlari umumiy shtat sonining deyarli yarmini band qilishgan.

5.2-jadval

**Respublika maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasi "Zangiota-2" ning
lavozim o'rinlarining bandligi. (2021 yil).**

Lavozim nomlari	Jami shtat soni	Jismoniy shaxslar	Muvofiqlik koefisienti	Lavozimlarning bandligi (%)
Shifokorlar	413	315	1,05	95,6
O'rta tibbiyot xodimlari	744,8	428	1,74	57,5
Kichik tibbiyot xodimlari	463,8	242	1,92	52,2

Bundan tashqari pandemiya davrida tibbiy muassasalarga sotib olingan: 65 ta mskt va rentgen apparatlari, 170 ta psr apparati, 2774 ta sipap apparati, 5358 kislorod konsentratori, 2300 ta ivl va kardiomonitor, 2303 ta funksional krovat, 1639 ta shprints nasoslar, 1512 bolalar sipap apparati, 300 ta ivl apparati, 2507 kislorod konsentratorlari va boshqa uskunalar yetkazib berildi. Aholi orasida kasallik tarqalishini oldini olish, tashxis qo'yish va davolash bepul amalga oshirildi, ambulator davolash uchun viloyatlarga 800000 dan ortiq, kasallikning oldini olish uchun 1,3 milliondan ko'proq birlamchi yordam to'plamlari yetkazib berildi, 30000 dona favipiravir hamda 36700 dona remdesivir paketlari muhtoj bemorlarga yetkazildi xamda {COVID} million o'qituvchi va tibbiyot xodimlari grippga qarshi emlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi Farmoniga muvofiq tibbiyot xodimlariga muntazam ravishda qo'shimcha to'lovlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning ko'rsatmalari asosida qo'shimcha 2,3 trln so'm COVID-19 bilan kasallangan bemorlar tarqalishi va davolanishining oldini olish chora-tadbirlarida ishtirok yetgan xodimlarga rag'batlantiruvchi to'lovlar amalga oshirildi. Jumladan, oylik ish haqiga 6% miqdorida 10,6 mlrd so'm to'landi va kunlik qo'shimcha xarajatlar 337,6 mlrd so'mni tashkil yetdi. Bundan tashqari 46,5 mlrd so'm tez tibbiy yordam xodimlari uchun qo'shimcha to'lovlarga yo'naltirildi. Maxsus qo'shimcha

to'lovlar – 1,759 mlrd so'm, xar 14 kun uchun shifokorlar uchun 25 million, o'rta tibbiyot xodimlari uchun 15 mln, kichik tibbiyot xodimlari uchun 10 mln so'm, boshqa xodimlar uchun esa 5 mln so'm miqdorida to'lab berildi. DSEO va JS va uning hududiy bo'linmalari xodimlari uchun qo'shimcha xarajatlar 15% dan 50% gacha va 40% dan 75% gacha oshirildi. Ushbu to'lovlar uchun jami 54,8mlrd so'm ajratildi. Maxsus poliklinikalar (COVID markazlari) xodimlarining oylik maoshlarini moliyaviy rag'batlantirish uchun 7,8 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Respublika koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolashga mo'ljallangan maxsus "2-son Zangiota" shifoxonasi uchun 2021 yilda ajratilgan mablag'larni tahlil qilganimizda oylik maosh uchun ajratilgan jami mablag'lardan kunlik bitta o'rin uchun sarflangan mablag' 588,875 so'mni, oziq ovqat (tovar va xizmatlar) uchun 76,361 so'mni, tibbiy buyumlar va dori-darmon uchun 273,795 so'mni, boshqa xarajatlar uchun 44,773 so'mni tashkil qilgan. Umuman olganda bitta o'rin uchun bir kunga jami 978,805 so'm mablag' sarflangan (5.3-jadval).

5.3-jadval

Respublika maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasi "Zangiota-2" ning moliyaviy mablag'lar bilan taminlanganligi (so'm).

Xarajatlar nomi	2021	
	JAMI	Bitta o'rin uchun bir kunga ketgan mablag'lar
Oylik maosh	206,531,155,805	588875
Tovar va xizmatlar (oziq-ovqat)	27,010,984,455	76361
Tibbiy buyumlar va dori-darmon	96,848,217,852	273795
Boshqa xarajatlar	15,837,627,935	44773
Jami ajratilgan mablag'lar	346,227,986,047	978805

Tibbiy muassasa faoliyatini tahlil etishdan maqsad, ko'rsatkichlarining kattaliklarini baholash, boshqa muassasalarning ko'rsatkichlari bilan dinamikada solishtirish va taqqoslash, ko'rsatkichlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni, ularga tasir qilayotgan xar xil omillarni va sabablarni aniqlash, malumotlarni interpretatsiyalash va xulosalar chiqarishdan iborat. Tahlil etish orqali muassasa ishini yaxshilash uchun maqsadli yo'naltirilgan tadbirlarni belgilash imkonini beruvchi qonuniyatlarni aniqlash va o'zaro bir biriga bog'liq sabablarni belgilash mumkin. Shuning uchun xam biz o'z tahlillarimizda Respublika koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolashga mo'ljallangan maxsus "2-son Zangiota" shifoxonasi faoliyatining tahlil qildik va baholadik. Muassasa tashkil qilingandan buyon jami 47821 nafar bemor davolangan bo'lib (2020-2021 yillar), o'rtacha yillik o'rinlar soni 1160 tani tashkil qilgan. Shifoxonadagi o'rinlar almashinuvi 2020 yilda (6 oy) 12 tani tashkil qilgan bo'lsa 2021 yilga kelib davolashning yangi ishlab chiqilgan bayonnomalari, mutaxassislarining tajribasi va davolashga qaratilgan chora-tadbirlarning samarasi oshganligi sababli bu ko'rsatkich 29 tani tashkil qildi. Buning natijasida bemorlarning stasionarda o'rtacha yotgan kunlari soni 12,4 kundan (2020 yil), 10,4 kunga (2021 yil) qisqardi (5.4-jadval).

5.4-jadval

Respublika maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasi "Zangiota-2" faoliyatining tahlili

Yillar	Jami davolanganlar soni	O'rtacha yillik o'rinlar soni	Bemorlar yotgan o'rin kunlar soni	O'rinlar almashinuvi	O'rtacha yillik o'rinlar bandligi	Bitta bemorning stasionarda o'rtacha yotgan kunlari soni
2020 (6 oy)	13809	160	174000	2	50	12,4
2021	34012	160	353725	9	05	10,4

Bemorlarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy yordam hizmati va ularni yaxshilash uchun olib borilayotgan chora-tadbirlar butun bir sog'liqni saqlash tizimini keng

qamrovli, tizimli o'zgartirishni va vrachlarning xar bir bemorni davolash uchun individual yondashishni talab qiladigan vositalardan biri bo'ladi. Misol uchun sog'liqni saqlash sohasida shaffoflikni o'rnatish va barcha birlamchi tibbiy yordam ko'rsatuvchi shifokorlar va bemorlarning o'zlari uchun qulay bo'lgan yagona elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish orqali davolovchi shifokorlar aholi vakillarining mavjud surunkali kasalliklari xaqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'ladi va xar bir bemorni davolash uchun individual davolash taktikasini tanlaydi bu esa bemorlarning kasallikdan erta tuzalishiga, kasallik natijasida paydo bo'ladigan asoratlarni kamaytirishga hamda o'lim holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Yurtimizda COVID-19 kasalligini og'ir va o'ta og'ir darajada o'tkazayotgan bemorlarda asosan bir nechta yondosh kasalliklari borligi 3 bobda yoritilib o'tildi. Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatuvchi shifokorlar odatda ushbu yondosh kasalliklari mavjud aholi guruxlari bilan ko'proq muloqotda bo'ladi va ularning ehtiyojlarini hamda salomatlik darajalarini yaxshiroq biladi. Shu sababdan xam bemorlarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamni oshirish va optimallashtirishda biz nafaqat statsionar sharoitda faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari balki aholi bilan ko'proq muloqotgi kirishadigan birlamchi tibbiy yordam ko'rsatuvchi shifokorlar faoliyatini ham baxolashimiz talab etiladi.

1-bosqich. Bemorlarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy yordam sifatini, ko'lamini kengaytirish va yaxshilashning dastlabki qadami bu, bemorlar haqida to'liq, to'g'ri, yetarlicha malumotlarga ega bo'lish hamda ularga tashxis qo'yishda asosiy vositalardan biri xisoblanadigan laboratoriya-diagnostika natijalarining ishonchliligidir. Buning uchun ushbu amaliyotni amalga oshiradigan vrachlar hamda laborantlar tajribali va bilimli bo'lishi talab etiladi.

2-bosqich. Bemorlar haqidagi ma'lumotlar taxlil qilingandan so'ng ularda uchraydigan yondosh surunkali kasalliklarni hamda kasallikni og'ir holatda o'tkazishiga omil bo'ladigan xavf omillarini aniqlab asosiy kasallik va ularga qarshi davolash taktikasi tuziladi. Davolash rejasini tuzilgandan so'ng natijalar kuzatiladi va tahlil qilinadi. Dalillarga asoslangan tibbiyot standartlari asosida baho beriladi.

To'g'ri natijalarga erishish uchun bemorlar kerakli vaqtda kerakli yordamga ega bo'lishlari lozim. Albatta tibbiy yordam olish imkoniyatini yaxshilash, kasallik

aniqlanganlarni birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari shifokoriga doimiy ravishda tashrif buyurishi kasallikni barvaqt aniqlash uchun olib boriladigan skrining tadbirlarini o'z ichiga olishi kerak.

Bemorlarga sifatli va samarali tibbiy yordam ko'rsatishi uchun ixtisoslashtirilgan shifohonalar va ilmiy amaliy tibbiy markazlar orasidagi hamkorlikni va o'zaro ma'lumotlar almashish bo'yicha xarakatlarni yanada kuchaytirish, bemorlar hayot sifatini yaxshilashga olib keladi. Yondosh kasalliklari bor COVID-19 ga chalingan bemorlar uchun umumlashtirilgan davolash protokollari ishlab chiqish kasalliklarning kasallikni og'ir holatda o'tkazishlariga va undan o'lim holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

1. Olib borilgan tahlillarimizga asosan 2021 yilda ushbu shifoxonada lavozim o'rinlarining bandlik darajasi shifokorlar uchun 95,6% ni, o'rta tibbiyot xodimlari uchun 57,5% ni, kichik tibbiyot xodimlari uchun 52,2% ni tashkil qilgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki o'rta tibbiyot xodimlari va kichik tibbiyot xodimlari umumiy shtat sonining deyarli yarmini band qilishgan.

2. Bir kunga bitta o'rin uchun sarflangan jami mablag' 978,805 so'mni tashkil qilgan (2021yil). Kasallanishning dastlabki oylaridagi ushbu xarajatlar oddiy bo'limlar uchun bitta bemor davolanish davrida 32 mln so'mni reanimatsiya bemori uchun 64 mln so'mni tashkil qilgan

3. Davolashning yangi ishlab chiqilgan bayonnomalari, mutaxassislarning tajribasi va davolashga qaratilgan chora-tadbirlarning samarasi oshganligi sababli shifoxonadagi o'rinlar almashinuvi 2020 yilda 12 ni (6 oy uchun), 2021 yilda 29 ni va statsionarda o'rtacha davolanish kunlari soni (2020 yilda 12,4, 2021 yilda 10,4) qisqardi.

4. Bemorlarga sifatli va samarali tibbiy yordam ko'rsatishi uchun ixtisoslashtirilgan shifohonalar va ilmiy amaliy tibbiy markazlar orasidagi hamkorlikni va o'zaro ma'lumotlar almashish bo'yicha xarakatlarni yanada kuchaytirish, bemorlar hayot sifatini yaxshilashga olib keladi.

XOTIMA

Mamlakatimizda 04.08.2022 yilga qadar 243266 nafar bemor qayd etilgan, shundan vafot etganlar soni 1637 nafarni tashkil qilmoqda. Koronavirus infeksiyasining birinchi holati 15 mart kuni Frantsiyadan kelgan ayolda kuzatilgan, shundan so'ng bir oy ichida stasionar sharoitda 1070 nafar, uy sharoitida davolangan 5897 nafar shaxsda tibbiy kuzatuv olib borilgan va ularning 2122 nafari karantinga olingan. 2020 yil 15 martdan boshlab O'zbekistonda chet eldan keluvchilar uchun karantin tadbirlari joriy etildi.

Bugungi kunga qadar yurtimizdagi epidemiologik holat biroz barqarorlashdi. Ammo bu degani hali biz bu virusdan butunlay xalos bo'ldik degani emas, olingan rasmiy statistik tahlillarga asosan Toshkent shahridagi qayd etilgan bemorlar jami kasallanganlarning **81728** ($76,4 \pm 0,11\%$) nafarni tashkil qilmoqda. Ushbu kasallanishlarni Tumanlar miqyosida tahlil qilganimizda eng ko'p kasallanish holati Mirzo Ulug'bek, Yunusobod va Yashnobod tumanlari hissasiga to'g'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Mirzo Ulug'bek tumanida bu ko'rsatkich 10765 ni, Yunusobod tumanida 10833 ni, Yashnobod tumanida 8723 ni tashkil qilgan (13.06.2022).

Bizning natijalar kasallanishning eng yuqori darajasi yoz va kuz oylariga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Shu vaqtgacha (2020y dekabr) jami kasallanganlarning (76907) $62,8 \pm 0,17\%$ (48 322 ta) ushbu davrga to'g'ri keldi. Shuning uchun xam bu davrda kasallanishning epidemiologik nazorati va laborator monitoringini kuchaytirish, shuningdek, profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni keng ko'lamda olib borish lozimligi belgilab berildi.

O'zbekistonda 2020 yilning iyun-iyul oylari kelib qisman ijobiy natijaga erishilganligi tufayli karantin tadbirlari biroz yumshatilgandi, natijada O'zbekistonda avgust-sentyabr oylaridan boshlab yangi holatlar sonining takroran oshishi kuzatildi, mazkur tendentsiya Evropa mintaqasida ham global masshtabda kuzatildi. Bunday takroriy o'sish ko'rsatkichini olimlar kasallanishning "ikkinchi to'lqini" deb ta'riflashdi.

Yurtimizda xam 2021 yil aprel oyiga kelib kasallanishlar soni sezilarli darajada osha boshladi va yilning 3-choragiga (iyul, avgust, sentyabr) kelib o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Bu ko'rsatkich shu yildagi (112331nafar) jami kasallanish ko'rsatkichlarining $56,3 \pm 0,14\%$ ni tashkil qilmoqda.

Mamlakatimizda eng ko'p kasallanish qayd etilayotgan yoz mavsumini kunlar bo'yicha tahlil qildik. Unga ko'ra 24 iyuldan 24 avgustgacha bo'lgan kasallanish holatlarini dinamikada o'rganildi. Tahlil natijalarimizga ko'ra kasallanish oyning oxirigacha doimiy ravishda o'sishda davom etgan va avgust oyining oxiriga kelib eng yuqori choqqini qayd etgan ya'ni shu bir oy ichida shu vaqtgacha umumiy kasallanishlarning ko'rsatkichining 38,8% ni tashkil qilgan.

COVID-19 ga qarshi epidemiologik, sanitar-gigienik xamda davolashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish natijasida yangi kasallanish holatlarining keskin kamayishi kuzatildi. Respublika shifoxonalarida ushbu kasallikdan davolanganlar va davolanayotganlar soni yilning 3 choragida (iyul, avgust, sentyabr) keskin ko'tarilganini kuzatish mumkin, jumladan COVID-19 kasalligidan 2020 yilda davolangan jami (74626 nafar) bemorlardan yilning 3 choragida tuzalganlar ulushi $64,2 \pm 0,17\%$ ni tashkil qilgan bo'lsa, davolashga qaratilgan yangi bayonnomalar ishlab chiqilishi, xamda davo choralarining samaradorligini oshganligi sababli ushbu ko'rsatkich oktyabr-noyabr oyida $94,2 \pm 0,08\%$ ni, yilning oxiriga kelib esa $98,1 \pm 0,05\%$ ni tashkil qildi.

COVID-19 kasalligi bilan kasallangan bemorlarni yosh va jins guruhlari bo'yicha tahlil qilganda 14 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlari orasida ikkala jins vakillari orasida xam kasallanish deyarli bir xil tarqalganligini, bunda erkaklar $4,88 \pm 0,2\%$, ayollar $4,81 \pm 0,2\%$ ni tashkil qilishini ko'rsatdi. Bu yurtimizda ushbu yosh guruhlarning xayot tarzi va faoliyati deyarli bir xil ekanligidan yani maktab, litsey va kollejlarda tahsil olishlari bilan izohlasak bo'ladi. Kasallanganlarning 15-49 yosh guruhlari orasida erkaklarning ulushi yuqori ($34,4 \pm 0,45\%$), ayollarda esa bu ulush biroz kamroq ($29 \pm 0,43\%$) ekanligini ko'rsatdi. 2020 yil holatiga ko'ra 50 yoshdan yuqori yosh guruhlari orasida yurtimizda ayollar 52% ni, erkaklarda esa 48% ni tashkil qilgan bo'lsa, kasallanish ko'rsatkichi esa tegishli ravishda $66,2 \pm 0,45\%$ va $61 \pm 0,46\%$ ni tashkil qildi.

Yurtimizda ushbu kasallikni aholi yosh guruhlari orasida tarqalganligini statistik tahlil qilganimizda jami kasallanganlarning $4,84 \pm 0,2\%$ 14 yoshgacha, $34,4 \pm 0,45\%$ 15-49 yoshgacha, $60,7 \pm 0,46\%$ 50 yoshdan yuqori aholi yosh guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. (3.6-rasm). Koronavirus infeksiyasi aniqlanib kasalxonada davolanayotganlarning 60,7% qismi yoshi 50 yoshdan oshgan bemorlar hissasiga to'g'ri

kelmoqda. Jami COVID-19 dan kasallanganlarning orasida keksa yoshdagi bemorlar JSST va boshqa turli adabiyotlarda [124] keltirilgan malumotlarga ko'ra xam, SARS CoV-2 ning dunyo mamlakatlarida tarqalganlik darajasi keksa yosh guruhlari va kattalarda yuqori bo'lmoqda.

Toshkent shahrida ushbu kasallikni aholi yosh guruhlari orasida tarqalganligini statistik tahlil qilganimizda jami kasallanganlarning $4,84 \pm 0,2\%$ 14 yoshgacha, $34,4 \pm 0,45\%$ 20-49 yoshgacha, $60,7 \pm 0,46\%$ 50 yoshdan yuqori aholi yosh guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. (3.6-rasm). Koronavirus infeksiyasi aniqlanib kasalxonada davolanayotganlarning 60,7% qismi yoshi 50 yoshdan oshgan bemorlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Jami COVID-19 dan kasallanganlarning orasida keksa yoshdagi bemorlar JSST va boshqa turli adabiyotlarda [124] keltirilgan malumotlarga ko'ra xam, SARS CoV-2 ning dunyo mamlakatlarida tarqalganlik darajasi keksa yosh guruhlari va kattalarda yuqori bo'lmoqda.

COVID-19 holatlarini to'liq va erta aniqlash va natijada o'z vaqtida izolyatsiya qilish va kontaktlarni diqqat bilan kuzatib borish yangi koronavirus infeksiyasi epidemiyasiga qarshi kurashning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Laboratoriya diagnostikasi bilan aholini qamrab olish hajmi COVID-19 bilan kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarining statistik ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Yuqtirganlarning yuqori aniqlanishi COVID-19 o'lim o'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi. Ya'ni, laboratoriya diagnostikasi epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar majmuasida muhim o'rin tutadi va COVID-19 bilan kasallanish va o'lim darajasini kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi.

Ishning ushbu qismida laboratoriya xizmati xususiyatlari o'rganildi va O'zbekiston Respublikasida yangi koronavirus infeksiyasining (COVID-19) laboratoriya diagnostikasi natijalari tahlil qilindi.

Laboratoriya tadqiqotlari 2020 yil mart oyida boshlangan. Har oyda tekshirilganlar soni doimiy ravishda o'sib bordi, 2020 yilda har oyda tanlangan namunalarning ulushi aprel oyida 6,5% dan iyulda eng ko'p 20,2% gacha o'sdi. Avgust va sentyabr oylarida tekshirilganlarning foizi 2020 yil uchun o'rtacha oylik qiymatlarda barqarorlashdi – 13,6-17,7 %. Biroq, oktyabr-dekabr oylarida namunalar soni 5,95-7,7% gacha kamaydi, garchi

mintaqada yangi koronavirus infeksiyasi (COVID-19) bilan kasallanish darajasi shu oylarda eng yuqori ko'rsatkichga erishgan bo'lsa ham (3.1-bob). Ushbu oylarda covid-19 uchun laboratoriya tadqiqotlari boshqa sog'liqni saqlash muassasalari va tijorat laboratoriyalari ishiga joriy etildi, ruxsat etilgan tadqiqot usullari ro'yxati kengaytirildi.

Shunday qilib, tashxis ko'pincha 61-70 yoshdagi bemorlarda PCR yordamida tasdiqlangan (barcha yoshdagi bemorlarning 21,2%). Ikkinchi o'rinda 51-60 yosh guruhidagi shaxslar (19,4 %), uchinchi o'rinda 41-50 yosh (15,2 %). Bu ushbu yoshdagi shaxslarning mutanosib ravishda yuqori o'ziga xos og'irligi bilan bog'liq

COVID-19 laboratoriya diagnostikasiga muhtoj bo'lgan bemorlar orasida guruhlar. Yosh shaxslar (19 yoshdan 30 yoshgacha) tekshirilganlar orasida 9,9 foizni, 15-18 yoshdagi o'smirlar 1,6 foizni, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar 5,1 foizni tashkil etdi.

Biroq, COVID-19 ga ijobiy javob berish darajasi sezilarli darajada farq qilmadi. Bu 0 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan guruhlar uchun o'rganilgan umumiy aholi uchun o'rtacha ko'rsatkichdan (23,1 %) past edi va 12,9-18,4% oralig'ida edi (rasm. 5.4 jadval. 5.3). Keksa odamlar orasida patogen tez-tez aniqlangan. 71 va undan katta yoshdagi so'rovda qatnashganlar guruhida 35,1% ijobiy javob, 61-70 yosh – 29,2 %, 51-60 yosh – 23,8 %. Olingan natijalar Toshkent shaxrida ro'yxatdan o'tgan turli yoshdagi odamlarda yangi koronavirus infeksiyasining paydo bo'lishi bilan mos keladi.

O'zbekistonda COVID-19 epidemiologik va gigiyenik tahlili natijalariga ko'ra, aholi orasida kasallik tarqalishiga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi tashqi muhit va gigiyenik omillarini o'rganish, ishlab chiqilgan nazorat choralari samaradorligini oshirishga imkon berishi isbotlandi. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra COVID-19 kasalligini nazorat qilish va boshqarishning zamonaviy tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan (5.1-rasm). Ushbu taklif etilayotgan monitoring tizimi uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish va bashoratlash, tahlil qilingan ma'lumotlar asosida boshqaruvni amalga oshirish. Ushbu har bir yo'nalish funksional jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog'liq ҳисобланади.

Koronavirus infeksiyasining tarqalishi va bemorlarning kasallikni qay darajada o'tkazishiga ta'sir qiluvchi atrof muhit, turmush sharoiti va tarzi hamda gigiyenik omillarni kompleks gigiyenik baholash quyidagilarni o'z ichiga oladi.

-tibbiy omillar: bemorlarda hamroh kasalliklarning mavjudligi, tibbiy madaniyatning pastligi, olis xududlarda tor soxa mutaxassislarining yetishmasligi, BTSYO muassasalarining yetarlicha zamonaviy asbob uskunalar bilan ta'minlanmaganligi

-biologik omillar: SARS-CoV-2 virusining shtammlarining o'zgaruvchanligi, uning oqsil strukturasi, serologiyasi, virulentligi kabi omillarning aholi orasida ushbu kasallikning keng miqyosda tarqalishiga ta'siri.

-atrof muhit omillari: tabiiy va iqlim omillari, bundan tashqari tabiiy muhitga inson organizmining ta'siri natijalari.

-ijtimoiy omillar: turmush tarzi, yashash va mehnat sharoiti, ovqatlanish rejimi, zararli odatlarning mavjudligi, jismoniy mashg'ulotlar bilan doimiy shug'ullanishi.

-fizik omillar: shovqin, tebranish, ultratovush, infraqizil nurlanish, issiqlik kabi omillar inson salomatligiga bevosita ta'sir qilishi hamda ushbu omillarning me'yoridan yuqoriligi organizm immun sistemasining susayishiga natijada esa turli xil yuqumli kasalliklarga jumladan COVID-19 kasalligi bilan xastalanishga hamda kasallikni og'ir va o'ta og'ir holatda o'tkazishiga olib kelishi mumkin.

Yurtimizda rasmiy malumotlarga ko'ra, 2022 yil 7 fevral holatiga ko'ra koronavirus infeksiyasi bilan kasallanib maxsus shifoxonalarda davolanayotganlar soni 15393 nafarni tashkil qilmoqda. Jumladan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida davolanayotgan bemorlar jami bemorlarning 31,8% ni tashkil qilmoqda (5.2-rasm). Yurtimizda samarali davolashga qaratilgan chora-tadbirlar va yangi davolash bayonnomalari samarasi o'laroq 2022-yilgi shifoxonalarda davolanayotganlar ulushi o'tgan yillarga qaraganda birmuncha pasaygan (0,7%) jumladan 3 bobda keltirib o'tilgan 2020 va 2021 yillardagi shifoxonalarda davolanayotgan bemorlar ulushi birmuncha yuqoriroq edi (2,2%). Hozirgi vaqtda bu ko'rsatkichlar albatta koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolash uchun mo'ljallangan respublika maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonasi Zangiota 1 va 2 hisobiga to'g'ri keladi, ushbu shifoxonalarga pandemiya boshlangandan buyon 70 mingga yaqin bemor yotqizildi (2021 y iyun holatiga). Yuqumli kasalliklar bo'limiga jami 1680 bemor o'rni ajratilgan bo'lib bu o'rinlar bitta shifokor lavozimiga 9,8, o'rta tibbiyot xodimlari uchun 5, kichik tibbiyot

xodimlari uchun 6,95 o‘rin to‘g‘ri kelayotganligini ko‘rsatadi. Gemodializ bo‘limida bitta shifokor lavozimiga 2,85 , o‘rta tibbiyot xodimi uchun 1,54, kichik tibbiyot xodimiga 2,85 o‘rin to‘g‘ri kelmoqda. COVID-19 kasalligini og‘ir va o‘ta og‘ir darajada o‘tkazayotganlar asosan reanimatsiya bo‘limida davolanishmoqda bu albatta bo‘limda yotgan xar bir bemor uchun alohida parvarish va davolash taktikasini talab qiladi shuning uchun xam reanimatsiya bo‘limida shifokorlar uchun bitta lavozimga to‘g‘ri keladigan o‘rin 1,85: o‘rta tibbiyot xodimlari uchun 0,96, kichik tibbiyot xodimlari uchun 1,89 tani tashkil qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi Farmoniga muvofiq tibbiyot xodimlariga muntazam ravishda qo‘shimcha to‘lovlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning ko‘rsatmalari asosida qo‘shimcha 2,3 trln so‘m COVID-19 bilan kasallangan bemorlar tarqalishi va davolanishining oldini olish chora-tadbirlarida ishtirok yetgan xodimlarga rag‘batlantiruvchi to‘lovlar amalga oshirildi. Jumladan, oylik ish haqiga 6% miqdorida 10,6 mlrd so‘m to‘landi va kunlik qo‘shimcha xarajatlar 337,6 mlrd so‘mni tashkil yetdi. Bundan tashqari 46,5 mlrd so‘m tez tibbiy yordam xodimlari uchun qo‘shimcha to‘lovlarga yo‘naltirildi. Maxsus qo‘shimcha to‘lovlar – 1,759 mlrd so‘m, xar 14 kun uchun shifokorlar uchun 25 million, o‘rta tibbiyot xodimlari uchun 15 mln, kichik tibbiyot xodimlari uchun 10 mln so‘m, boshqa xodimlar uchun esa 5 mln so‘m miqdorida to‘lab berildi. DSEO va JS va uning hududiy bo‘linmalari xodimlari uchun qo‘shimcha xarajatlar 15% dan 50% gacha va 40% dan 75% gacha oshirildi. Ushbu to‘lovlar uchun jami 54,8mlrd so‘m ajratildi. Shuning uchun xam biz o‘z tahlillarimizda Respublika koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni davolashga mo‘ljallangan maxsus “2-son Zangiota” shifoxonasi faoliyatining tahlil qildik va baholadik. Muassasa tashkil qilingandan buyon jami 47821 nafar bemor davolangan bo‘lib (2020-2021 yillar), o‘rtacha yillik o‘rinlar soni 1160 tani tashkil qilgan. Shifoxonadagi o‘rinlar almashinuvi 2020 yilda (6 oy) 12 tani tashkil qilgan bo‘lsa 2021 yilga kelib davolashning yangi ishlab chiqilgan bayonnomalari, mutaxassislarning tajribasi va davolashga qaratilgan chora-tadbirlarning samarasi oshganligi sababli bu ko‘rsatkich 29 tani tashkil qildi. Бунинг натижасида беморларнинг стационарда ўртача ётган кунлари сони 12,4 кундан (2020 йил), 10,4 кунга (2021 йил) қисқарди.

XULOSALAR

1. COVID-19 bilan kasallanish orasidagi farq faqatgina hududlargagina xos bo'lmay, balki kasalliklarni aniqlash va ro'yxatga olish hamda ularni hisoblash usullariga, shuningdek davolash-profilaktika muassasalarida faoliyat olib borayotgan, kadrlar kasb mahoratiga, tibbiy xizmatning ommabopligi va boshqa omillarga ham bog'liqdir.

2. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda koronavirus infektsiyasining eng yuqori o'sish davri so'nggi 2 yilda yilning 3 choragiga (iyul, avgust, sentyabr) to'g'ri keldi. Koronavirus infektsiyasi ko'plab boshqa virusli infektsiyalar kabi mavsumiy xarakterga ega.

3. Aholining yoshi oshib borishi bilan koronavirus infektsiyasi bilan kasallanish ko'rsatkichi keskin ko'payib bormoqda va uning eng yuqori darajasi 60 yosh va undan katta aholi guruhiga to'g'ri keldi. Jami stasionarga yotqizilgan bemorlarning $7,1 \pm 0,45\%$, reanimasiyada davolangan ularning ichidan 60 va undan yuqori yoshli bemorlar $67,5 \pm 0,45\%$ tashkil etdi. 5. Bemorlar orasida kasallikni og'ir va o'ta og'ir darajada o'tkazayotganlarning ulushi $21,6\%$ ni tashkil qilgani holda, erkaklar va ayollar orasida kasallikning kechishi jihatidan statistik ishonchli farq aniqlanmadi. Bemorlarning kasalxonalarda davolanish muddatlari yondosh-surunkali kasalliklar bor bemorlarda $13,45 \pm 0,17$ kunni, 2 va undan ortiq yondosh kasalliklari bor bemorlarning davolanish muddati $16,3 \pm 0,17$ kunni, surunkali kasalliklari yo'q bemorlarda $9,5 \pm 0,15$ kunni tashkil qilmoqda.

4. Surunkali kasalligi bor bemorlarning COVID-19 kasalligiga chalinish ehtimoli yuqori ($52,3 \pm 1,15\%$), ularning orasida ayniqsa qandli diabet, YUIK, gipertoniya, nafas a'zolari surunkali kasalliklari yuqori ulushlarni tashkil qilayotgan bo'lsa ($81,7 \pm 1,03\%$), bu kasalliklar bilan kasallangan bemorlar COVID-19 kasalligini ham og'ir va o'ta og'ir darajada o'tkazishmoqda (89%).

5. Olib borilgan tahlillarimizga asosan 2021 yilda ushbu shifoxonada lavozim o'rinlarining bandlik darajasi shifokorlar uchun $95,6\%$ ni, o'rta tibbiyot xodimlari uchun $57,5\%$ ni, kichik tibbiyot xodimlari uchun $52,2\%$ ni tashkil qilgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki o'rta tibbiyot xodimlari va kichik tibbiyot xodimlari umumiy shtat sonining deyarli yarmini band qilishgan.

6. Bir kunga bitta o‘rin uchun sarflangan jami mablag‘ 978,805 so‘mni tashkil qilgan (2021yil). Kasallanishning dastlabki oylaridagi ushbu xarajatlar oddiy bo‘limlar uchun bitta bemor davolanish davrida 32 mln so‘mni reanimatsiya bemori uchun 64 mln so‘mni tashkil qilgan

7. Davolashning yangi ishlab chiqilgan bayonnomalari, mutaxassislarning tajribasi va davolashga qaratilgan chora-tadbirlarning samarasi oshganligi sababli shifoxonadagi o‘rinlar almashinuvi 2020 yilda 12 ni (6 oy uchun), 2021 yilda 29 ni va statsionarda o‘rtacha davolanish kunlari soni (2020 yilda 12,4, 2021 yilda 10,4) qisqardi.

8. Bemorlarga sifatli va samarali tibbiy yordam ko‘rsatishi uchun ixtisoslashtirilgan shifohonalar va ilmiy amaliy tibbiy markazlar orasidagi hamkorlikni va o‘zaro ma’lumotlar almashish bo‘yicha xarakatlarni yanada kuchaytirish, bemorlar hayot sifatini yaxshilashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Anderson RM, Fraser C, Ghani AC, Donnelly CA, Riley S, Ferguson NM, et al. Epidemiology, transmission dynamics and control of SARS: The 2002-2003 epidemic. In: Philosophical Transactions of the Royal Society B: Biological Sciences. Royal Society. 2004:1091–105.
2. Anderson RM, Fraser C, Ghani AC, Donnelly CA, Riley S, Ferguson NM, Leung GM, Lam TH, Hedley AJ. Epidemiology, transmission dynamics and control of SARS: the 2002–2003 epidemic. Philos. Trans. R. Soc. Lond. B Biol. Sci. 2004; 359:1091–105.
3. Arabi YM, Harthi A, Hussein J, Bouchama A, Johani S, Hajeer AH, et al. Severe neurologic syndrome associated with Middle East respiratory syndrome corona virus (MERS-CoV) Infection. 2015;43:495–501.
4. Arendse LB, Jan Danser AH, Poglitsch M. Novel therapeutic approaches targeting the renin-angiotensin system and associated peptides in hypertension and heart failure. Pharmacol Rev. 2019;71:539–570. 166
5. Arentz M, Yim E, Klaff L, et al. Characteristics and outcomes of 21 critically ill patients with COVID-19 in Washington State. JAMA. 2020. 10.1001/jama.2020.4326
6. Assiri A, Al-Tawfiq JA, Al-Rabeeh AA, Al-Rabiah FA, Al-Hajjar S, Al-Barrak A, et al. Epidemiological, demographic, and clinical characteristics of 47 cases of Middle East respiratory syndrome coronavirus disease from Saudi Arabia: A descriptive study. Lancet Infect Dis. 2013;13:752–61.
7. Ather A., Patel B., Ruparel N.B., Diogenes A., Hargreaves K.M. Coronavirus disease 19 (COVID-19): Implications for clinical dental care. J. Endod. 2020;45:584–595. doi: 10.1016/j.joen.2020.03.008. 109
8. Azhar E.I., El-Kafrawy S.A., Farraj S.A., Hassan A.M., Al-Saeed M.S., Hashem A.M., Hashem A., Madani T. Evidence for camel-to-human transmission of MERS coronavirus. N. Engl. J. Med. 2014;370:2499–2505. doi: 10.1056/NEJMoa1401505.
9. Azhar EI, El-Kafrawy SA, Farraj SA, Hassan AM, Al-Saeed MS, Hashem AM, Madani TA. Evidence for camel-to-human transmission of MERS coronavirus. N. Engl. J. Med. 2014; 370: 2499–505.

10. Azhar EI, Hui DSC, Memish ZA, Drosten C, Zumla A. The Middle East respiratory syndrome (MERS) Infect Dis Clin North Am. 2019;33:891–905.
11. Babapoor-Farrokhran S, Gill D, Walker J, Rasekhi RT, Bozorgnia B, Amanullah A. Myocardial injury and COVID-19: possible mechanisms. Life Sci. 2020;253
12. Backer Jantien A, Don K, Jacco W. Incubation period of 2019 novel coronavirus (2019-nCoV) infections among travellers from Wuhan, China. Euro Surveill. 2020;25:20–8.
13. Bailey L., Ward M., DiCosimo A., Baunta S., Cunningham C., Romero-Ortuno R., et al. (2021). Physical and mental health of older people while cocooning during the COVID-19 pandemic. Int. J. Med. 20:hcab015.
14. Booth CM, Matukas LM, Tomlinson GA, Rachlis AR, Rose DB, Dwosh HA, et al. Clinical features and short-term outcomes of 144 patients with SARS in the Greater Toronto Area. J Am Med Assoc. 2003;289:2801–9.
15. Brooks S. K., Webster R. K., Smith L. E., Woodland L., Wessely S., Greenberg N., et al. (2020). The psychological impact of quarantine and how to reduce it: rapid review of the evidence. Lancet 395 912–920. 10.1016/s0140-6736(20)30460-8.
16. Buja LM, Wolf D, Zhao B. The emerging spectrum of cardiopulmonary pathology of the coronavirus disease 2019 (COVID-19): report of 3 autopsies from Houston, Texas, and review of autopsy findings from other United States cities. Cardiovasc Pathol. 2020;48.
17. Cacioppo J. T., Hawkley L. C. (2009). Perceived social isolation and cognition. Trends Cogn. Sci. 13 447–454.
18. Cai J., Sun W., Huang J., Gamber M., Wu J., He G. Indirect Virus Transmission in Cluster of COVID-19 Cases, Wenzhou, China, 2020. Emerg. Infect. Dis. 2020;26 doi: 10.3201/eid2606.200412.
19. Caldeira D, Alarcão J, Vaz-Carneiro A, Costa J. Risk of pneumonia associated with use of angiotensin converting enzyme inhibitors and angiotensin receptor blockers: systematic review and meta-analysis. BMJ. 2012;345.
20. Çalica Utku A, Budak G, Karabay O, Güçlü E, Okan HD, Vatan A. Main symptoms in patients presenting in the COVID-19 period. Scott Med J. 2020;65:127–32.

21. Calton B., Abedini N., Fratkin M. (2020). Telemedicine in the time of coronavirus. *J. Pain Symp. Manag.* 60 12–14.
22. Carlos W.G., Crus C., Cao B., Pasnick S., Jamil S. Novel Wuhan (2019-nCoV) coronavirus. *Am. J. Respir. Crit. Care Med.* 2020;**201**:7–8. doi: 10.1164/rccm.2014P7.
23. Caussy C, Pattou F, Wallet F. Prevalence of obesity among adult inpatients with COVID-19 in France. *Lancet Diabetes Endocrinol.* 2020;**8**:562–564.
24. Centers for Disease Control and Prevention . Severe Outcomes Among Patients with Coronavirus Disease 2019 (COVID-19)—United States, February 12–March 16, 2020. Accessed March 26, 2020.
25. Chan J.F.W., Yuan S., Kok K.H., To K.K.W., Chu H., Yang J., Xing F., Liu J., Yip C., Poon R., et al. A familial cluster of pneumonia associated with the 2019 novel coronavirus indicating person-to-person transmission: A study of a family cluster. *Lancet.* 2020 doi: 10.1016/S0140-6736(20)30154-9.
26. Chen H., Guo J., Wang C., Luo X., Yu X., Zhang W., Li J., Zhao D., Xu D., Gong Q., et al. Clinical characteristics and intrauterine vertical transmission potential of COVID-19 infection in nine pregnant women: A retrospective review of medical records. *Lancet.* 2020;**395**:809–815. doi: 10.1016/S0140-6736(20)30360-3.
27. Chen L., Lou J., Bai Y., Wang M. COVID-19 disease with positive fecal and negative pharyngeal and sputum viral tests. *Am. J. Gastroenterol.* 2020;**115** doi: 10.14309/ajg.0000000000000610.
28. Chen Y, Yang D, Cheng B. Clinical characteristics and outcomes of patients with diabetes and COVID-19 in association with glucose-lowering medication. *Diabetes Care.* 2020;**43**:1399–1407.
29. Cheng Y, Luo R, Wang K. Kidney disease is associated with in-hospital death of patients with COVID-19. *Kidney Int.* 2020;**97**:829–838.
30. Cheung K.S., Hung I.F., Chan P.P., Lung K.C., Tso E., Liu R., Ng Y.Y., Chu M.Y., Chung T.W., Tam A.R., et al. Gastrointestinal manifestations of SARS-CoV-2 infection and virus load in fecal samples from the Hong Kong cohort and systematic review and meta-analysis. *Gastroenterology.* 2020 doi: 10.1053/j.gastro.2020.03.065.

31. Chowell G., Blumberg S., Simonsen L., Miller M.A., Viboud C. Synthesizing data and models for the spread of MERS-CoV, 2013: Key role of index cases and hospital transmission. *Epidemics*. 2014;**9**:40–51. doi: 10.1016/j.epidem.2014.09.011.

32. Chu KH, Tsang WK, Tang CS, Lam MF, Lai FM, To KF, et al. Acute renal impairment in coronavirus-associated severe acute respiratory syndrome. *Kidney Int*. 2005;**67**:698–705.

33. Coronavirus Resource Center . Coronavirus COVID-19 Global Cases by the Center for Systems Science and Engineering (CSSE) at Johns Hopkins University. Accessed March 26, 2020.

34. Coronavirus Resource Center. Johns Hopkins University and Medicine

35. Cotterell N., Buffel T., Phillipson C. (2018). Preventing social isolation in older people. *Maturitas* 1 80–84. 10.1016/j.maturitas.2018.04.014

